



SO'ZLASHUV NUTQIDA SO'Z-GAPLAR

Munisa Shavkatova

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
filologiya fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada so'z-gaplarning o'rganilishi, ularning qo'llanilishi va ma'noviy guruhlari ochib berilgan va ular misollar orqali tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *So'z-gaplar, undovlar, modallar, taklif-ishora, tasdiq-inkor, bo'laklarga bo'linmaydigan gap.*

Abstract: *This article describes the study of expressions, their use and semantic groups, and analyzes them through examples.*

Keywords: *Expressions, exclamations, modals, suggestion-indication, affirmation-negation, indivisible sentence.*

Аннотация: *В данной статье описывается изучение выражений, их использования и семантических групп, а также проводится их анализ на примерах.*

Ключевые слова: *Выражения, восклицания, модальные глаголы, суффикс-индикация, утверждение-отрицание, неделимое предложение.*

So'zlashuv nutqida deyarli barcha so'z-gaplardan unumli foydalanadi va nutq ko'pincha ixchamlikka tayanganligi bois, ularga ehtiyoj seziladi. O'zbek tilshunosligida so'z-gaplar atroflicha o'rganilgan va u turlicha nomlarni o'zida mujassamlashtirgan. Jumladan, E.Shodmonov, S.Usmonov, S.Saidov, B.O'rinboyev, O'.Lafasov, R.Bobokalonovlar tomonidan o'rganilgan. Bu olimlar tilimizdagi undovlar, modallar, taklif-ishora va tasdiq-inkor so'zlar xususida monografik tadqiqot olib borishgan. Bundan tashqari, M.Qurbonov a, S.Mo'minov, L.Raupova, Sh.Iskandarovalarning tadqiqot ishlarida nutqning sotsiolingvistik jihatlarini ochib berilib, so'z-gaplarga munosabat bildirilgan. M.Hakimov va Sh.Safarov esa tilning pragmalolingvistik jihatlarini tadqiq etganlar. [1,6] So'z-gaplar mustaqil grammatik hodisa bo'lib, o'zbek tilshunosligida ular har xil atamalar bilan talqin etilgan. Professor A.G'ulomov so'z-gaplarni "undash gaplar" sifatida e'tirof etsa, M.Mirzayev, S.Usmonov, I.Rasulovlar "bo'laklarga bo'linmas gaplar" tarzida talqin etadilar²⁸

Buni ham aytish joizki, har bir olim so'z-gaplarni o'rganayotgan vaqtda turli guruhlarga bo'lib o'rganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, B.O'rinboyev so'z-gaplarni to'rt guruhga bo'lib o'rgangan: 1. Sof emotsiya bildiruvchi so'z-gaplar; 2. Nutqiy muomala odatlarni ifodalovchi so'z-gaplar; 3. Emotsiya baho beruvchi so'z-gaplar; 4. Demonstrativ so'z-gaplar. [2,98] Akademik G'.Abdurahmonov ham so'z-gaplar haqida alohida to'xtalib, ularni ma'no va vazifasiga ko'ra besh guruhga: 1. Tasdiq bildiruvchi so'z-gaplar. 2. Inkor so'z-gaplar. 3. So'roq so'z-gaplar. 4. His-tuyg'u so'z-gaplar. 5. Modal so'z-gaplarga bo'lsa

²⁸ Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрогматик хусусиятлари. - док.дисс. Т.,2021,6-б.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



[3,35], R.Bobokalonov ularni to'rt guruhga: 1. Modallar. 2. Undovlar. 3. Tasdiq-inkorlar. 4. Taklif-xitob [4,112] so'z-gaplarga ajratadi. R.Sayfullayeva boshqalar ham xuddi R.Bobokalonov kabi to'rt guruhga bo'lganligini kuzatish mumkin. [5,420] biz ham shu tasnifga qo'shilgan holda tahlilni olib borar ekanmiz, dastlab, modallarga to'xtalib o'tamiz. Bu guruh ham o'z ichida bir qancha ma'nolarni o'z ichiga olib, so'zlashuv nutqida faol ishtirok etadi desak, mubolag'aa bo'lmaydi, ya'ni:

So'zlashuv nutqida aytilgan fikrning chinligi ma'nosida qo'llaniladigan modal so'z-gaplar mavjud: darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatdan kabilar. Lekin bu ma'nodagi modal so'z-gaplar kam hollarda qo'llanadi desak adashmaymiz.

Fikrning qat'iyligini ifodalovchi modal so'z-gaplar: shubhasiz, so'zsiz, shaksiz kabi
Ishonch bildiruvchi modal so'z-gaplar: albatta. Masalan:

- Albatta, domlajon, albatta! Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r, deb turganlar bordir. (O'.Hoshimov, 377-b.)

Voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanini ifodalovchi modal so'z-gaplar: o'z-o'zidan, tabiiy kabilar kiradi.

Fikrning realligini ifodalovchi modal so'z-gaplar: rostdan, darvoqe, aslida kabilar.

- Rostdan, - Shodivoy yelkamdan qoqdi, -yuraver biznikida. (O'.Hoshimov, 347-b.)
- Rostdan ham, haligi motosiklga mingashyotganimda qo'limda papka bor edi-ya!
(O'.Hoshimov, 137-b.)

- Siz, hammani ko'r deb o'ylaysiz-u, aslida, o'zingiz ko'rsiz! (O'.Hoshimov, 155-b.)

So'z-gaplarning ikkinchi guruhi yuqorida keltirganimizdek, undov so'z-gaplardir. Ular kishilarning his-tuyg'usini, haydash, to'xtatish kabi xitob, buyruqni ifodalab keladi: eh, voy, barakalla, ofarin kabilar. Masalan:

- Barakalla! Qush tilini qush biladi-da! – domla ma'qullab bosh silkidi. (O'.Hoshimov, 377-b.)

- Voy, bo'yларingga bo'ytumor! Boy, o'zimning “striptiz” kelinimdan aylanay!
(O'.Hoshimov, 385-b.)

- Voy, tutxo'r-ey! Ammo boplading Ig'vogarni! (O'.Hoshimov, 158-b.)

- Eh-he, haliyam do'q qilyapsanmi? (O'.Hoshimov, 213-b.)

- Xih, tulporim! – deyman baqirib. (O'.Hoshimov, 26-b.)

Uchinchi guruhi tasdiq-inkor so'z-gaplar hisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

Tasdiq	Inkor
Ha	Yo'q
Mayli	Also
Xo'p	Mutlaqo
Xo'sh	Sira

Misol tariqasida: - O'zing ob kelib, Nigoraga yedirasan! Uqdingmi?

- Xo'p bo'ladi, oyijon! (O'.Hoshimov, 385-b.)

- Mayli, endi mallimjon... - bu dadamning ovoziligini bildim.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- Yo‘q, maylimas! – direktorimiz to‘satdan chinqirib yubordi. (O‘.Hoshimov, 19-b.)
- Xo‘sh, nega endi o‘zingizni panaga olasiz? Nega royona oldida, oblono oldida bizni sharmanda qilasiz? (O‘.Hoshimov, 19-b.)

- Men qamalib ketsam, bola-chaqani sen boqasanmi, ahmoq xotin?! – deb mushtini do‘laytirgan edi, onam paqirni lapanglab qochdi.

- Mayli, o‘zingiz bilasiz, - dedi nariroq borib. (O‘.Hoshimov, 21-b.)

To‘rtinchi guruhi taklif-ishora so‘z-gaplardan iborat. Ular inson tana a‘zolarining maxsus harakati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ma, mang, qani, marhamat kabi so‘zlardan tashkil topgandir. Misol qilib:

- Qani, kelaver! – dedim jazavam tutib, - kela qol! (O‘.Hoshimov, 214-b.)

- Chekkingiz kelsa, marhamat! Yoningizdagi qo‘shningizdan ruxsat so‘rab, chekavering (O‘.Hoshimov, 248-b.)

Tahlilar shuni ko‘rsatadiki, so‘z-gaplarning asosiy xususiyati shunda bo‘ldiki, ular hech qachon kesimlik shakllarini, ya‘ni mayl, zamon, shaxs-sonlarni qabul qilmaydi, faqat gaplardan o‘rib chiqqan salomat bo‘ling, yaxshi boring, xush ko‘rdik kabi so‘zlardan tashqari. So‘z-gaplar nutqning ixchamligi va ta‘sirchanligini oshiruvchi muhim vosita ekanligi misollar orqali tahlil qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрогматик хусусиятлари. - док.дисс. Т.,2021

2. Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи синтаксиси. - Самарқанд, 2009.

3. Абдурахмонов Ф. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

4. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида гап синтаксиси ва сўз-гапларнинг систем- структур талқини. – Тошкент: Фан, 2006.

5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. 620-b.

6. Hoshimov O‘. Ajdarning tavbasi. – Toshkent, 2016. 424-b.